

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI: TA’LIM NAZARIYASI VA
AMALIYOTI**

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risi”dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug‘iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida “O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta’lim nazariyasi va amaliyoti” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o‘tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o‘zbek tilining xorijiy til sifatida o‘qitishda qo‘llanayotgan va foydalanish mumkin bo‘lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To‘plamdan dunyo bo‘yicha o‘zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO‘TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o‘rin olgan.

To‘plam til va adabiyot ta’limi bilan shug‘ullanuvchi professor-o‘qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay’ati:

S.Muhamedova, N. Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y. Shirinova,
O. Turakulova, D. Elova, G. Iskandarova, Y. Do‘smurodova.

Mazkur to‘plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o‘zlari mas’uldirlar.

16. Тожиев Ё., Хасанова Н., Тожиматов Х. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 1994.
17. Чижик-Полейко А.И. Стилистика русского языка. – Воронеж, 1962. -С. 80.
18. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983, 13-б.
19. Щерба Л. В. Преподавание иностранных языков в средней школе. – В кн.: Общие вопросы методики. – М., 1947. – С. 53.
20. Қўнғуров Р. Қ., Каримов С. А., Қурбонов Т.И. Нутқ маданияти асослари, I. (лекциялар матни). – Самарқанд, 1986, 36-б.
21. Қўнғуров Р. Нутқ маданияти ва услубият асослари. -Тошкент, 1990.

O‘ZBEK MULOQOT XULQINING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Oybarchin Abdulhakimova

ToshDO‘TAU “O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta‘limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek muloqot xulqining xususiyatlari, jumladan ijtimoiy muhitning muloqot madaniyatiga ta’siri, muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o‘rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. O‘zbek millatiga xos o‘zaro muloqot muhitlaridan quyidagilarga: ustoz va shogird o‘rtasidagi muloqot jarayoni, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi muloqot jarayoni, qaynona va kelin o‘rtasidagi muloqot jarayoniga to‘xtalindi va tahlil etildi.

Kalit so‘zlar. *muloqot, sotsiolingvistika, pedagogik jarayon, madaniy daraja, muloqot xulqi, ta’lim-tarbiya, kommunikant, ijtimoiy muhit.*

Annotation. The article describes the characteristics of Uzbek communication behavior, including the influence of the social environment on the culture of communication, knowledge of the rules of communication and the development of skills and abilities to establish it. Among the interaction environments characteristic of the Uzbek nation are the following: the process of communication between a teacher and a student, the process of communication between parents and children, mother-in-law and daughter-in-law the communication between them was discussed and analyzed.

Key words. *dialogue, sociolinguistics, pedagogical process, cultural level, communication behavior, education, communicant, social environment.*

Muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari, ehtiyojlaridan kelib chiqib, bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya’ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan turli faoliyat turlari (mehnat, o‘qish, o‘yin, ijod qilish va boshqalar) o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sir shakllarini qamrab oladi. Muloqotning lug‘aviy ma’nosi “uchrashish, ko‘rishish, qabul qilish, mushohada” [4: 636] ekani ham buni tasdiqlaydi. Zero, yashash va mehnat jarayoni odamlarning bir-birlari bilan til

topishishi, turli xil ma'lumotlarni bir-birlariga uzatishlari, fikr almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni taqozo etadi. Shuning uchun ham muayyan shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, mehnat faoliyatidagi muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga ta'siri masalasini o'rganar ekan, ijtimoiy muhitni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi. "Muhit tushunchasi o'z ichiga oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni qamrab oladi. Insonni qurshab turuvchi barcha narsa: turmush va uning jihozlari, tabiat, jamiyat va davlat, shaxs, tarix, ya'ni turli davr va xalqlarning madaniyatlari muhit tushunchasiga kiradi" [3; 11].

Inson yashab turgan tabiat va jamiyat ma'lum bir muhitni tashkil qiladi. Inson o'sha muhitda yashar ekan, bu uning fe'l-atvoriga, shuningdek, muloqot madaniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. "Insondagi o'zgarishlar, eng avvalo uning xulqida, jumladan muloqot xulqida namoyon bo'ladi. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga ta'sir ko'rsatadi" [2:136]. Til jamiyat taraqqiyoti natijasida rivojlanar ekan, ijtimoiy muhitning til va uning namoyon bo'lish shakli – nutqqa ta'siri juda katta. Inson mansub bo'lgan muhitning tabiati uning nutqida ham yorqin namoyon bo'ladi. Kishilarning yashash tarzi, ish faoliyati, o'qish tartibi, sharoiti, atrof-muhitning o'zgarishi uning nutqida ham o'z aksini topadi. Ijtimoiy muhitning tilga ta'siri masalasi sotsiolingvistik tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Tadqiqotchi S.Mo'minovning mazkur masala bilan bog'liq dissertatsiyasida ham ijtimoiy muhitning muloqot xulqiga ta'siri, ya'ni qishloqliklar va shaharliklar nutqining o'ziga xos farqli jihatlari asosan muhit bilan bog'liq ekanligi ta'kidlangan. Sotsiolog va psixologlar ham kommunikantlar nutqining o'ziga xos tarzda shakllanishida ijtimoiy muhitning alohida o'rin tutishini ta'kidlaydilar.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. Sotsiolingvistika bilan ijtimoiy psixologiya ham insonlarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini egallashda muloqot madaniyati katta ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi. Shaxs muloqot madaniyatining shakllanishi avvalo oiladan boshlanadi. Keyinchalik esa bu jarayon bog'cha, maktab, oliy o'quv yurti, ishxonada davom etadi.

Bola bog'chada tarbiyachisining tanbehlarini, tartibli bo'lishga doir uqtirishlarini uyga kelgach, qo'g'irchog'iga bo'lgan munosabat orqali takrorlaydi. Ular bilan xuddi tarbiyachi singari muloqotga kirishadi. Demak, bolaning muloqot madaniyati shakllanishida tarbiyachining o'rni va roli katta. Bog'chadan keyin maktab, oliy o'quv yurti, ishxonada insonlar bilan muloqot jarayoni kengroq miqyosda davom etadi. Inson jamoada o'z muomalasi bilan obro'-e'tibor topadi.

Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. O'zbek millatiga xos o'zaro muloqot muhitlaridan quyidagilarga alohida to'xtalmoqchimiz:

1. Ustoz va shogird o'rtasidagi muloqot jarayoni;
2. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi muloqot jarayoni;
3. Qaynona va kelin o'rtasidagi muloqot jarayoni.

Ustoz va shogird o'rtasidagi muloqot jarayoni dars vaqtida asosan adabiy tilda olib boriladi. Ustoz shogirdlari bilan dars jarayonida rasmiy muloqotga kirishsa, darsdan tashqari paytlarda, jumladan, muzeyga, teatrga yoki boshqa madaniy muassasalarga borganda erkin muloqotda bo'ladi. Ustozning o'z shogirdi bilan do'stona muomalada bo'lishi, shogird tomonidan bilimning puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayondagi muomala odobida muallimning axloqiy sifatlari, madaniy darajasi aks etadi. Ustozning o'ziga, o'z kasbiga, shogirdlarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo'ladi. Shogirdning ham ustoziga bo'lgan muomalasidan uning qanday muhitda yashashini, qanday oilada tarbiya topganini aniqlash mumkin.

Ma'lum bo'ladiki, ta'lim-tarbiya sifatining oshishi, ma'nan yetuk kadrlar tayyorlash ishining yutug'i ko'p jihatdan ustoz va shogird o'rtasidagi muloqot jarayoni qanday bo'lishiga bog'liq.

Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi muloqot jarayoni muhim va nozik ekani bilan alohida ajralib turadi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganlaridek, farzandning muomala madaniyati oila muhitida shakllanadi. Ota-onaning murojaati odatda pand-nasihatga asoslanadi, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan, uzil-kesil shaklda kechadi. Ularning o'zi buni doim namoyon etavermasa-da, o'ziga hurmatni talab qiladi. Ota-ona farzandlari tartibini nazorat qilishni yoqtiradi. Farzand tomonidan tartib buzilishi ular o'rtasidagi muloqot jarayonini salbiy o'zanga burishi mumkin. Ota-onaning farzand bilan do'stona munosabati ular o'rtasidagi muloqotning erkin tarzda yuzaga kelishini ta'minlaydi. O'zbek oilasida farzand ota-onaga hurmati tufayli muloqot jarayonida ibo va andishani saqlaydi. Ko'nglidagi muddaoni yetkazishda so'zlarni tanlaydi. Xayoliga kelgan fikrni to'g'ridan-to'g'ri emas, aql chig'irig'idan o'tkazib, keyin aytadi.

O'zbek muloqot xulqidagi bu xususiyat o'zining tarixiy ildizlariga ega. Jumladan, bu xususiyat "O'tkan kunlar" romanidan olingan quyidagi iqtibosda yaqqol namoyon bo'lgan: "O'zbek oyim kelib kirgandan so'ng Yusufbek hoji bir necha vaqt o'ylab qoldi... Anchagina so'zsiz o'lturg'andan so'ng hoji muloyimona so'z ochdi:

- O'g'lim, hali san eshitdingmi-yo'qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...

Otabek, ma'lumki, ularning "qilib qo'yg'an yoki qilmoqchi bo'lg'an ishlarini" albatta bilar edi. Shundoq ham bo'lsa bilmaganga solindi:

- Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari albatta noma'qul bo'lmas, - dedi.

Hoji o'g'lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi".

Bu o'rinda ota-ona va o'g'il o'rtasidagi muloqot jarayoni butun murakkabligi, nozik jihatlari bilan namoyon bo'lgan. Professor N.Jabborov romandan olingan ushbu matnni tahlil etib, quyidagicha fikr bildiradi: "Romanda ota-bola, ona-bola, er-xotin, qaynota-kelin, qaynona-kelin – umuman, oilaviy munosabatlar milliy urf-udumlardan kelib chiqib, teran badiiy talqin etilgan. Mana, yana bir qaltis vaziyatda – Otabekni Zaynabga uylantirish masalasi ko'tarilganda, bu munosabat qay tarzda namoyon

bo'ladi. Biz ushbu vaziyatni qaltis deb ataganimiz sababi, agar oilaviy munosabatlar qat'iy mezonga tayanmagan bo'lsa, o'zaro hurmat-izzat joyiga qo'yilmasa bu o'rinda oila poydevoriga darz ketishi ehtimoldan xoli emas edi. Bir-birini tushunish o'rniga dahanaki jang yuz berishi ham mumkin edi. Otabekning so'zlari bunday vaziyatda aqlli o'g'ildan kutiladigan eng oqilona javob. Unda nafaqat ota-ona xohishiga rizolik, shuning barobarida e'tiroz ham mujassam. Biroq bu e'tiroz benihoya madaniy tarzda, donishmand otani ham o'ylantiradigan, kerak bo'lsa, noqulay vaziyatga solib qo'yadigan shaklda izhor etilmoqda. Yusufbek hojining "erga qarashi va nima deb javob qilishni bilmay qolishi" sababi shunda" [1].

Ota-ona va farzand o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos lingvistik xususiyati shundan iboratki, bu muloqot odatda adabiy tilda emas, shevada olib boriladi. Ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatida erkalash elementlari kuzatiladi. Qiziga "ona qizim", "asalim", o'zliga esa, "toychog'im", "polvonim", deya murojaat etishi bu fikrni tasdiqlaydi.

Demak, ota-ona va farzand o'rtasidagi muloqot jarayoni sotsiolingvistik jihatdan alohida e'tiborga molik. Farzandning muloqot madaniyatini egallashida oilaviy muhit hal qiluvchi o'rin tutadi.

O'zbek xalqida qaynona va kelin o'rtasidagi muloqot jarayoni qadimda ham, hozirda ham eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Ular o'rtasidagi muloqot jarayoni odatda o'zbekona tarzda o'zaro hurmat asosiga quriladi. Kelin qaynonasiga nisbatan shirin so'zli bo'lishga intiladi. U chaqirgan vaqtda "Labbay" deb javob beradi. Qaynonaning kelinini "siz"lashi, "qizim", "bolam" deya murojaat qilishi ular o'rtasidagi muloqotning iliq bo'lishini, o'zaro hurmat asosiga qurilishini ta'minlaydi. Bunday sotsiologik muhit ularni bir-biriga yanada yaqinlashtirib, muloqot jarayonining har doim ijobiy tarzda bo'lishini ta'minlaydi. Ammo, oiladagi turli xil vaziyatlar, ikir-chikirlar tufayli ba'zi kelinlarning qaynonasiga gap qaytarishi, hurmatsizlik ko'rsatishi ular o'rtasidagi sotsiologik muhitning buzilishiga olib keladi. Bunday holatlarning muttasil davom etishi esa, oilaviy munosabatlarning darz ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida quyidagi hikmatli so'zlarni yozadi:

Sening o'zing esonlik tilasang,

Tilingdan yaroqsiz so'zingni chiqarma.

Bu kabi o'gitlarga amal qilish sotsiologik vaziyat yuqoridagi singari salbiy tomonga burilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek oilasida qaynona-kelin o'rtasidagi muloqot jarayoni, ayniqsa, nozik jihatlariga ega. Bu turdagi kommunikantlar muloqotining yuksak madaniy darajada bo'lishini ta'minlash uchun bo'lajak kelinlar ongi va ruhiga Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkir ajdodlarimiz hikmatlarini singdirish yaxshi samara berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek muloqot xulqi xalqimizning buyuk tarixi, shuning barobarida murakkab va ziddiyatli kechmishi jarayonida shakllangan. Asrlar davomida sayqallanib, rivojlanib kelmoqda. Milliy muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlarini turli kommunikantlar misolida har tomonlama va chuqur o'rganish esa, sotsiolingvistikaning galdagi vazifalaridandir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жабборов Н. Миллат сийрати мусаввири // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2012 йил 13 апрель.
2. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. - Тошкент, 2000.- Б.136.
3. Носиров А. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талкини. ("Юлдузли тунлар" романи мисолида): Филол. фанлари номзоди... дисс. -Тошкент, 1999, 11-б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.- Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2-жилд, 2006, 636-б.

GRAFOLOGIK TAHLIL QILISH METODIKASI

Yo'ldosheva Yulduz Abdikarim qizi
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Bu maqola qo'l yozuvini grafologik tahlil qilishda kerak bo'ladigan yozuvning asosiy xususiyatlarini ochib beradi. Metodikasini aniqlaydi. Qo'l yozuvi misollar orqali tahlil qilinib, shu orqali grafologiyaning amaliy va nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Kalit so'zlar. *grafologik ekspertiza, qo'l yozuvi tahli metodikasi, yozuv shakllari: bosim, katta, kichik, burchakli, o'nga burilish, chapga burilish, tikmalar, bo'shliqlar va chekkalar; temperamentni aniqlash.*

Annotation. This article will reveal the main features of writing that are necessary for graphological analysis of handwriting. Determines the methodology. Handwriting is analyzed through examples, thereby defining the practical and theoretical importance of graphology.

Key words. *graphological expertise, handwriting analysis methodology, writing forms: pressure, large, small, angular, right turn, left turn, stitches, spaces and edges; determining temperament.*

Grafologiya bugungi kunda juda katta talabga ega. Grafologlar rivojlangan davlatlarda katta-katta firmalarda xodimlarni tanlash, ish uchun ariza beruvchilarni qo'l yozuvi bilan baholash va raqobatchilarni tavsiflash, yangi lavozimlarga boshliqlar tayinlashda layoqati bor yoki yo'qligini aniqlash, soxta imzolarni tekshirib tahlil qilish va imzo egalarining xarakterini ochib berish, bolalarning institut yo'nalishlarini tanlash, ularning qiziqishlarini belgilash kabi vazifalarni bajaradi.

Har bir inson faqat o'ziga xos yozish uslubiga ega. Xat yozish uslubini sinchkovlik bilan o'rganish natijasida grafologlar odamning xarakteri, fe'l-atvori, tashqi ko'rinishi va hatto ish turi qo'l yozuviga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadigan ma'lum naqshlarni aniqladilar. Quyida yozuv xususiyatlari tahlil metodlarining

V SHO‘BA. TILNI ILMIY TADQIQ QILISH MASALALARI

İbrahimova S. Feilin növ kateqoriyasının oğuz qrupu türk dillərində yeri.....	146
Məmmədov X., Kadirova X. X (iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	152
Elova D. O‘zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	157
Abdulahimova O. O‘zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	167
Yo‘ldosheva Y. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	171
Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	175
Aytniyazova N. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	179
Xamrayeva Z. Complex syntactic wholes and their specifics.....	183
Xaydarova I. Morfemaning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish tarixi.....	186
Xo‘jayev N. O‘zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	189
Жаркын Арайлым. Саяси коммуникация және саяси дискурс	194
Beysenova A. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	202